



## O'ZBEKISTON-SAUDIYA ARABISTON: HAMKORLIKNING MUSTAHKAM RISHTALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20531745>

**Rajabova Sabina O'ktam qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ikki davlat hamkorligining bugungi holati tahlil qilinadi. Maqolada 1992-yil diplomatik aloqalar o'rnatilgan dastlabki davrlardan boshlab siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda olib borilgan o'zaro hamkorlik aloqalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston-Saudiya Arabistoni munosabatlarining kelajak istiqbollari bo'yicha tahliliy xulosalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbekiston, Saudiya Arabistoni, hamkorlik, Nigoh-2030, investitsiya, Islom taraqqiyot banki, Islom hamkorlik tashkiloti, ACWA Power, energetika,*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются формирование и этапы развития дипломатических отношений между Узбекистаном и Саудовской Аравией, а также современное состояние сотрудничества двух государств. В статье освещаются вопросы политического, экономического и культурного взаимодействия, начиная с первых лет установления дипломатических связей в 1992 году. Кроме того, приводятся аналитические выводы о перспективных направлениях дальнейшего развития узбекско-саудовских отношений.*

**Ключевые слова:** *Узбекистан, Саудовская Аравия, сотрудничество, Видение-2030, инвестиции, Исламский банк развития, Организация исламского сотрудничества, ACWA Power, энергетика.*

**Abstract:** *This article analyzes the establishment and stages of development of diplomatic relations between Uzbekistan and Saudi Arabia, as well as the current state of cooperation between the two countries. It highlights political, economic, and cultural collaboration since the early years of diplomatic relations established in 1992. The article also provides analytical conclusions regarding the future prospects of Uzbekistan–Saudi Arabia relations.*

**Keywords:** *Uzbekistan, Saudi Arabia, cooperation, Vision-2030, investment, Islamic Development Bank, Organization Islamic Cooperation, ASWA Power, energy.*

XXI asr yuqori darajada  
axborotlashuv va integratsiyalashuv asri.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari  
o'zaro yaqinlashib turli sohalarda bir-biri



bilan hamkorlik qilmoqda. O‘zbekiston ham mustaqillikka erishgandan buyon xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etib keladi. O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilash jarayonida milliy manfaatlari va strategik maqsadlariga mos ravishda tashqi siyosatni shakllantirib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamkorlikni rivojlantirish va kengaytirish O‘zbekiston rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning Birlashgan Arab Amirliklari, Misr, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlari bilan munosabatlari yangi darajaga ko‘tarilmoqda. Shuni qayd etish kerakki, Yaqin Sharq maamlakatlari bilan o‘zaro foydali va har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash O‘zbekistonning tashqi siyosati sohasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.<sup>61</sup> Xususan, O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi munosabatlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada jonlandi. Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik siyosiy, iqtisodiy, investitsion va madaniy-gumanitar yo‘nalishlarda izchil kengayib bormoqda.

Arabiston yarim orolida, Qizil dengiz, Arab ko‘rfazi va Hind okeanida qirg‘oqlari bo‘lgan Saudiya Arabistoni eng muhim dengiz yo‘llarida va turli sharqiy, g‘arbiy va janubiy mamlakatlar iqtisodiyotida muhim joylashuvi tufayli mintaqaviy yetakchi hisoblabadi. U asoschi a‘zo sifatida Fors ko‘rfazi

hamkorlik kengashining nufuzli a‘zosi bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari Saudiya Arabistoni G20 ga qo‘shilgan birinchi va yagona arab davlatidir.

Saudiya Arabistoni 1991-yil 30-dekabrda O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo‘lib tan oldi. 1992-yilda esa diplomatik aloqalar boshlandi. Aynan shu yilning 19-fevral kuni Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri, shahzoda Saud al Faysal al Saud mamlakatimizga davlat tashrifi bilan keldi. Ushbu tashrif O‘zbekiston hamda Saudiya Arabistoni rahbarlarining ilk tarixiy uchrashuvi sifatida davlatlarning kelgusi munosabatlarida yuksak ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov mehmonni mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirdi. So‘ngra bir qator sohalarda jumladan, moliya-kredit, sog‘liqni saqlash, turizm bo‘yicha hamkorlik qilish, Toshkent-Jidda havo yo‘lini ishga tushirish va nihoyat, elchixonalar ochish yuzasidan taklif-mulohazalarini bildirdi.<sup>62</sup> Ushbu uchrashuv O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlikka yo‘l ochdi.

Ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun 1992-yil 11-14-aprel kunlari Saudiya Arabistoni podshosi Fath ben Abdul Aziz al Saud taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ushbu mamlakatga davlat tashrifi bilan keldi. Unda ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yangi darajaga ko‘tarish, o‘zaro do‘stona

<sup>61</sup> Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston” Toshkent-2023, 379-b

<sup>62</sup> Xalq so‘zi gazetasi. 1991-yil 21-fevral. 38-son (289)



aloqalar mustahkamlash hamda iqtisodiy sohalardagi hamkorlikka ahamiyat qaratildi. Bu tashrifning amaliy natijasi sifatida 1992-yil noyabrda Jidda shahrida O‘zbekiston Respublikasi konsulxonasi, 1995-may oyida esa Ar-Riyod shahrida O‘zbekiston elchixonasi ochildi. O‘zbekiston Prezidentiga yuksak hurmat va ehtiromini bildirgan qirol Saudiya Arabistonining O‘zbekistonga har tomonlama yordamini bildirdi va hamkorlikni rivojlantirishga chaqirdi. Islom Karimovning tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun ko‘prik bo‘lib xizmat qildi. Mustaqillikka endigina erishgan O‘zbekiston uchun Saudiya Arabistoni kabi islom dunyosida yetakchi mavqega ega davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatish xalqaro legitimlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Hamkorlikning ilk kunlaridanoq har ikki tomon iqtisodiy, siyosiy va investitsiya hamkorligini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratdi. Saudiya Arabistoni va O‘zbekiston Respublikasi bir necha kelishuvlarni birinchi navbatda 1995-yil noyabr oyida Ar-Riyodda siyosiy, iqtisodiy, tijorat investitsiya, madaniy sohalarda hamkorlik bo‘yicha ramziy kelishuvni, 2009-yil aprel oyida Jidda havo transporti to‘g‘risidagi bitimni hamda 2011-yil iyun oyida Toshkentda investitsiyalarni himoya qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risidagi bitimni imzoladilar. Boshidanoq ikki davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar faqat diplomatik darajada emas balki keng qamrovli strategik hamkorlik sifatida shakllangan.

Imzolangan kelishuvlarning ketma-ketligi ikki davlatning tashqi siyosatda uzoq muddatli manfaatlar uyg‘unligini ko‘zlagani eks etadi. Shavkat Mirziyoyev 2016-yil dekabr oyida O‘zbekiston respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishgach, O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi hamkorlik yanada faollashdi, yuqori darajadagi rasmiy tashriflar va muzokaralar soni oshdi. Tomonlar xalqaro maydonda xususan Islom Hamkorlik Tashkiloti doirasida hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saudning taklifiga binoan 2017-yil 21-may kuni Ar-Riyod shahrida bo‘ladigan arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammitida ishtirok etadi.<sup>63</sup> Bu Shavkat Mirziyoyevning ilk bor Saudiya Arabistoniga tashrifi edi. Ushbu tashrif davomida O‘zbekiston rahbari tomonidan uchrashuvlar o‘tkazilda va ularda kelajakdagi istiqbolli yo‘nalishlar belgilab olindi. Xususan sammit davomida Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish maqsadida Islom Taraqqiyot banki Prezidenti Bandar Hajar bilan uchrashib, Samarqandda Imom Buxoriyning ma’naviy merosini o‘rganish uchun xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish yuzasidan fikr almashdi va Islom taraqqiyot banki bilan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tuzish to‘g‘risida anglashuv memorandum imzolandi.

<sup>63</sup> [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)



“Saudiya Arabistonining tashabbusi bilan ekstremistik mafkuraga qarshi kurashish bo‘yicha “Mo‘tadillik” xalqaro markazining Ar-Riyod shahrida ochilishi sammit doirasida erishilgan yorqin natijalardan biri bo‘lib, hech shubhasiz, kelajakda vazminlik va ijobiy muloqot tamoyillarini mustahkam qaror toptirish imkonini beradi. Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazini barpo etish va islom sivilizatsiyasi rivoji uchun beqiyos xizmat qilgan buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini yosh avlodga yetkazishdek savobli ishda Saudiya Arabistoni ham o‘zining amaliy hissasini qo‘shadi deb umid bildiramiz. Ar-Riyod va Samarqand shaharlarida barpo etilajak ushbu yangi markazlarning maqsad va vazifalari bir-biriga yaqin ekanligini inobatga olib, kelajakda ular hamkorlikda faoliyat olib borishlariga ishonch bildiramiz.”<sup>64</sup>

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 17-avgust kuni Saudiya Arabistoni Podshohligiga rasmiy tashrifi chog‘ida Saudiya valiahd shahzodasi Muhammad bin Salmon Ol Saud bilann muzokaralar olib bordi. Muzokaralar davomida Shavkat Mirziyoyev davlatlarning o‘zaro qarashlari mushtarakligini e’tirof etib, Saudiyaning “Nigoh-2030” Davlat dasturining muvafaqqiyatli amalga oshirilayotganiga yuksak baho berdi. Mazkur davlat dasturda ko‘zlangan maqsad va vazifalar 2022-2026 yillarga

mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining mohiyati bilan uyg‘unligi ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy, savdo, iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar sohalardagi o‘zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirishga zamin yaratdi.<sup>65</sup> Mamlakatlar o‘rtasida madaniy, ilmiy va investitsiyaviy muhitni yaxshilash, turistik salohiyatni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi PF-190 sonli “Saudiya Arabistoni Podsholigi fuqorolari uchun O‘zbekiston Respublikasiga kirish rejimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qonunining qabul qilinishi bu borada muhim qadamlardan biri bo‘ldi.<sup>66</sup>

Oxirgi yillar ichida mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy sohalarda ham hamkorlikning o‘sganligini ko‘ramiz. Bilamizki, Saudiya Arabistoni neft va enegetikaga boy mamlakat hisoblanadi. Arab dunyosining eng mashhur kompaniyalaridan biri bo‘lgan “ACWA Power” kompaniyasi bilan jami 2 milliard 600 million dollarlik yirik energetika loyihalari amalga oshirilishi uchun shartnomalar imzolandi. Mazkur investitsiyaviy shartnoma issiqlik elektr stansiyasini, loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish va 25 yil muddatga ishlatishni nazarda tutadi.

<sup>65</sup> Xalq so‘zi. 2022-yil, 18-avgust. №177-178-son

<sup>66</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi PF-190 sonli “Saudiya Arabistoni Podsholigi fuqorolari uchun O‘zbekiston Respublikasiga kirish rejimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qonuni

<sup>64</sup> Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент-2017. 417-418-б.



Loyihaning foydalanish bosqichida 1000 dan ortiq ish o‘rinlari ham yaratiladi. Stansiya yiliga 12 milliard kVt/soat qo‘shimcha elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Saudiya Arabistonining yirik energetika kompaniyalari tomonidan O‘zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etishi loyihalariga investitsiya kiritishi mamlakatning energiya xavfsizligini ta‘minlashga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek energetik sohasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi balki O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot” ga o‘tish strategiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Saudiya Arabistoni nafaqat o‘zining iqtisodiyoti, shuningdek neft va gaz zahirasi bo‘yicha jahonning yetakchi davlatlaridan biri balki, dunyo musulmonlari uchun muqaddas bo‘lgan Makka va Madina shaharlariga ega nufuzli mamlakat hisoblanadi. Dunyo aholisining 24,9 %, ya’ni 1,9 milliard kishi islom diniga e‘tiqod qilib, ularning 2/3 qismi Osiyo qit‘asiga to‘g‘ri keladi bu esa qit‘a aholisining 20% dan ziyodini tashkil qiladi.<sup>67</sup> O‘zbekiston ham musulmon mamlakat bo‘lgani uchun Saudiya Arabistoniga borib, muqaddas joylarni ko‘rishga boradigan ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratish O‘zbekiston-Saudiya Arabistoni hamkorligida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ikki mamlakatlar o‘rtasida diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi

mamlakatimiz musulmon aholisi orasida haj ziyoratiga boruvchilar sonini keskin oshishiga sabab bo‘ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida hajga boruvchilar soni 1700 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa bugungi kunga kelib bu raqamlar sezilarli darajada oshgan. Bu mamlakatlar o‘rtasida diniy sohadagi hamkorlikning ijobiy natijasidir. Jumladan 2025-yil 19-fevrl kuni Saudiya Arabistoni Podsholigi Haj va umra ishlari vaziri Tavfiq bin Favzon ar-Rabia boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘ldi va Shavkat Mirziyoyev bilan muzokaralar olib bordi. Uchrashuv avvalida vazir Podshohning ko‘p millatli O‘zbekiston xalqiga hadyasi - muqaddas Ka‘ba yopinchi‘i kisvasining bir parchasini topshirdi. O‘zbekiston yetakchisi o‘z navbatida Saudiya Arabistoni rahbariyatiga bebaho tuhfa hamda ziyoratchilarimizning musulmon dunyosi markazi bo‘lgan Makka va Madinada bo‘lishi uchun yaratilgan imkoniyatlar va qulay sharoitlar uchun chuqur minnatdorchilik bildirdi. Birgina o‘tgan yilning o‘zida 800 mingdan ziyod fuqorolarimiz umra ziyoratini, 15 ming nafar Haj ibodatlarini ado etgan. Suhbat chog‘ida O‘zbekistonlik ziyoratchilarga shart-sharoitlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.<sup>68</sup>

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-avgustda qonuniga muvofiq

<sup>67</sup> To‘rayeva O, Hasanova S. “Islom dinining tarqalishi va tarbiyaga ta‘sir” Central Asian academic journal of scientific research. Jurnal 148-b

<sup>68</sup> Yangi O‘zbekiston. №36 (1362), 2025-yil 20-fevral



“Imom Buxoriy” ordeni ta’ sis etildi.<sup>69</sup> 2022-yilning 19-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ikki muqaddas masjid xodimi- Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon Bin Abdulaziz Ol Soudni mamlakatimizning yuksak mukofoti - “Oliy darajali Imom Buxoriy” ordeni bilan mukofotladi. Salmon bin Abdulaziz ushbu mukofotga sazovor bo’lgan birinchi inson bo’ldi.<sup>70</sup> Ushbu ordenning topshirilishi Saudiya Arabistonining O‘zbekiston bilan do‘stona aloqalarini mustahkmlash, islom sivilizatsiyasi merosini asrash va targ‘ib etish hamda diniy-ma’rifiy hankorlikni rivojlantisih yo‘lidagi xizmatlariga berilgan yuksak bahodir. Ushbu ramziy e’tirof o‘zaro ishonchni mustahkmlab, O‘zbekiston-Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi siyosiy muloqot, madaniy gumanitar va diniy hamkorlikniyanada rivojlantirish uchun asos yaratdai.

Xulosa qilib aytganda ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar uzoq tarixiy ildizlarga ega. Diniy yaqinlik ikki xalqni asrlar davomida ma’naviy jihatdan bog‘lab kelgan. Mustaqillikdan keyin ushbu tarixiy-diniy yaqinlik zamonaviy iqtisodiy va siyosiy manfaatlar bilan uyg‘unlashib, ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratdi. Saudiya Arabistoni O‘zbekistonni mustaqilligini dastlabki yillardanoq birinchilardan bo‘lib tan oldi va uzoq yillardan beri O‘zbekistonning xalqaro maydondagi

ishonchli sheriklaridan biri. Bugungi kunda ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik siyosiy ishonch va o‘zaro manfaatlar tamoyiliga asoslangan holda rivojlanib bormoqda. Energetika, investitsiya, diniy-marifiy sohalardagi qo‘shma loyihalar bu hamkorlikning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy merosga tayangan holda zamonaviy strategik maqsadlar sari yo‘naltirilgan hamkorlikdir. Bu hamkorlik kelgusida ham mintaqaviy barqarorlik, islom dunyosida birdamlik va ikki davlat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shishi shubhasizdir.

<sup>69</sup> lex.uz O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 15.08.20220-yildagi O‘RQ-789-son

<sup>70</sup> [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)  
<https://share.google/FNcUYLVXwprwIVhXJ>



## FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston” Toshkent-2023, 379-b
2. Xalq so‘zi gazetasi. 1991-yil 21-fevral. 38-son (289)
3. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
4. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент-2017. 417-418-б.
5. Xalq so‘zi. 2022-yil, 18-avgust. №177-178-son
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi PF-190 sonli “Saudiya Arabistoni Podsholigi fuqorolari uchun O‘zbekiston Respublikasiga kirish rejimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qonuni
7. To‘rayeva O, Hasanova S. “Islom dininng tarqalishi va tarbiyaga ta’siri” Central Asian academic journal of scientific research. Jurnalni 148-b
8. Yangi O‘zbekiston. №36 (1362), 2025-yil 20-fevral
9. lex.uz O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 15.08.20220-yildagi O‘RQ-789-son
10. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz) <https://share.google/FNcUYLVXwprwIVhXJ>